<i>Nazirova Sayyora Baxtiyorovna, Qulmamatova Barno Omonovna, Sharifova Nargiza Djurayevna</i>	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISHNING O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	811
<i>Murodova E'zoza Maqsud qizi</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: ISHLASH MEKANIZMI VA ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH	816
<i>Umarov Bobur Murtazoyevich</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI INVESTITSIYA FAOLLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH	822
<i>Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich</i>	
AGRAR SOHADA KADRLAR TAYYORLASHNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI	829
<i>Boltayev Nurali Shiramatovich</i>	
MAMLAKATIMIZ TURIZM SOHASI XIZMATLAR SIFATI BILAN BOG'LIQ IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	838
<i>Suyunov R. G'.</i>	
ПРОБЛЕМЫ И ОГРАНИЧЕНИЯ В ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	844
<i>Джулибеков Нурмат Каршибекович, Жулиева Гулноз Юлдашевна</i>	
BIZNES JARAYONLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ASOSLARI	849
<i>Yoqubjanov Muminmirzo Nosirjon o'g'li, Erkinxojiyev Ismoiljon</i>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	853
<i>Ernazarov Gulam Bekbaevich</i>	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI	860
<i>Mirzokirov Mirramizjon Mirxoshim o'g'li</i>	
ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	867
<i>Урунова Мафтуна Гайратовна</i>	
АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ЭКОНОМИКИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ	871
<i>Некова Фатима Борисовна</i>	
MINTAQA SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA KLASTERLASH VA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARINING AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	876
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI TIZIMINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY TASHKILY-IQTISODIY USULLARDAN FOYDALANISH	882
<i>Kayumov Z.O.</i>	
O'ZBEKISTONDA VALYUTA KURSINING SHAKLLANISHI VA UNING INFLATSIYA DARAJASIGA TA'SIRI MEKANIZMI.....	887
<i>Matrizayev Zafar Gulimboy o'g'li, Viqorjon Bahriddinov Akbar o'g'li</i>	
МЕХНАТ BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI.....	892
<i>Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	897
<i>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</i>	
НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	901
<i>Мирзаев Кулмамат Джанзакович</i>	



ELEKTR UZILISHLARINING HUDUDIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	906
Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi	
DAVLAT TRANSPORT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	911
Uktamov Sarvar Atxam o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПОДДЕРЖКИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАНАХ ЕС, США И ЯПОНИИ	915
Газизова Эльмира Хамидовна, Мелибаева Гульнора Ачиловна	
SANOATNI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILLARI	921
O'zmanov Ixtiyor Ibragim o'g'li	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	926
Sherov Sanjar Radjabovich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI STRATEGIYALAR ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	932
Umurov Jasurbek Jamil o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	936
Raxmonov Abduxalil Rasulovich	
INKLYUZIV TA'LIM XIZMATLARINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT, OTM VA IT INFRATUZILMA INTEGRATSIYASI.....	940
Maxkamova Kamola	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUDJETLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (ENERGETIKA KORXONALARI MISOLIDA).....	944
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	950
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	



UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
mustaqil tadqiqotchisi
mirumar1990@gmail.com.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda uy-joy qurilishi va uy-joy fondining joriy holati hamda uy-joy qurilishining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Qurilish hajmlari va uy-joy fondining kengayishi asosiy ko'rsatkichlar sifatida ko'rib chiqilgan. Davlat tomonidan ipoteka dasturlari va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash choralari alohida ta'kidlangan. Shuningdek, uy-joy narxlarining oshishi, qurilish materiallari ta'minotidagi ayrim cheklovlar va texnologik yangilanish sur'atlarining sekinligi kabi masalalar yoritilgan. Maqolada sohaning yanada samarali rivojlanishi uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: uy-joy qurilishi, uy-joy fondi, rivojlanish holati, ipoteka dasturlari, qurilish materiallari, davlat siyosati, uy-joy narxlar, innovatsiyalar, investitsiyalar, qishloq va shahar infratuzilmasi.

Abstract. This article analyzes the current state of housing construction and the housing stock in Uzbekistan, as well as the main development trends in the housing sector. Construction volumes and the expansion of the housing stock are considered as key indicators. Particular attention is given to state mortgage programs and measures aimed at supporting the private sector. The article also highlights issues such as rising housing prices, certain constraints in the supply of construction materials, and the relatively slow pace of technological modernization. Practical recommendations for the further effective development of the sector are proposed.

Key words: housing construction, housing stock, development status, mortgage programs, construction materials, government policy, housing prices, innovations, investments, rural and urban infrastructure.

Аннотация. В данной статье проанализированы текущее состояние жилищного строительства и жилищного фонда в Узбекистане, а также тенденции развития жилищного строительства. В качестве основных показателей рассмотрены объемы строительства и расширение жилищного фонда. Особое внимание уделено государственным ипотечным программам и мерам поддержки частного сектора. Также освещены вопросы роста цен на жилье, отдельных ограничений в обеспечении строительными материалами и замедления темпов технологического обновления. В статье предложены практические рекомендации по дальнейшему эффективному развитию отрасли.

Ключевые слова: жилищное строительство, жилищный фонд, текущее состояние развития, ипотечные программы, строительные материалы, государственная политика, цены на жилье, инновации, инвестиции, сельская и городская инфраструктура.

KIRISH

Uy-joy qurilishi – bu aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida yangi turar joy fondini yaratish, binolarni modernizatsiya qilish yoki ta'mirlash (rekonstruksiya qilish) jarayonini o'z ichiga olgan milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu sohaga rejalashtirish, moliyalashtirish, loyihalash, qurilish hamda turar joy obyektlarini keyingi ekspluatatsiya qilish kabi jarayonlar kiradi.

Bugungi kunda har qanday jamiyatda turmush sifati va farovonlik darajasini belgilovchi muhim omillardan biri bu – aholining munosib uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasidir. Uy-joy masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, demografik va siyosiy ahamiyatga ham ega. Ayniqsa, O'zbekiston kabi aholisi jadal o'sib borayotgan davlatda uy-joy qurilishini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur paragrafda uy-joy qurilishi tizimini rivojlantirishdagi o'ziga xos xususiyatlar, mavjud muammolar va istiqbolli yechimlar haqida fikr yuritiladi.

Uy-joy qurilishidagi muhim jihatlar – bu uning ijtimoiy ahamiyati, kompleksligi, uzoq muddatligi hamda davlat tomonidan tartibga solinishi hisoblanadi. Bir tomondan, turar joy qurilishi uzoq muddatli jarayon bo'lib,



rejalashtirilgan va barqaror investitsiyalarni talab qiladi, ikkinchi tomondan esa, uning yuqori ijtimoiy roli, ya'ni aholining uy-joyga bo'lgan asosiy ehtiyojini qondirishda namoyon bo'ladi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turar joy qurilishining iqtisodiy mohiyati uning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan ko'p jihatdan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Jumladan, u qurilish materiallari ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, yangi turar joy majmualari, mahallalar va tumanlarda transport infratuzilmasining rivojlanishiga yordam beradi, aholi bandligini ta'minlaydi hamda bu orqali mamlakat iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turar joy fondini qayta taqsimlash va turar joy xizmatlarini taqdim etishning iqtisodiy mexanizmi uning asosiy ishtirokchilari — davlat, qurilish kompaniyalari, investorlar va yakuniy foydalanuvchilarning uyg'un hamkorligini talab qiladi [2]. Shuningdek, qurilishga yaroqli yer resurslaridan samarali foydalanish uchun mavjud raqobat qurilish loyihalarining qiymati va muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil hisoblanadi.

Aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va umumiy farovonlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu bois davlat ushbu sohani tartibga solishda faol ishtirok etadi hamda uy-joylarning sifati, xavfsizligi va keng aholi qatlamlari uchun iqtisodiy jihatdan qulay bo'lishini ta'minlash maqsadida tegishli standart va normalarni joriy etadi [3-5].

Davlat ishtirokining ahamiyati shundaki, u milliy iqtisodiyotda iste'mol, jamg'arma va investitsiya o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu davlat va shaxsiy manfaatlar uyg'unligi asosida amalga oshiriladi. Bunday muvozanatga erishish esa, asosan, prognostik yondashuv va strategik rejalashtirishga tayanadigan davlat boshqaruvi orqali ta'minlanadi [6-8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi uy-joy qurilishi sohasining hozirgi holatini iqtisodiy faoliyat turi sifatida tahlil qilish, uni rivojlantirishdagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish bo'yicha istiqbolli yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganilayotgan muammoning tizimli yondashuvini aks ettirsa-da, mamlakatimizda ushbu sohadagi izlanishlar muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, hozirgi kunda qurilish sanoati rivojlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Shu bilan birga, qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini faollashtirish masalasi tizimli yondashuvga asoslangan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida to'liq o'rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishi, uning maqsadi va aniq vazifalarini belgilab beradi.

Tadqiqot jarayonida mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish, statistik tahlil, mantiqiy yondashuv, taqqoslash, umumlashtirish va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot davomida turli ilmiy adabiyotlar, maqolalar, statistik ma'lumotlar va sohaga oid rasmiy manbalar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uy-joy qurilishi bu shunchaki binolarni barpo etish emas, balki keng ma'nodagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, aholining hayot sifatini oshirish, zamonaviy shahar va qishloq muhitini yaratish hamda infratuzilmani rivojlantirish kabi dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi. Uy-joy qurilishi bugungi globallashuv va urbanizatsiya sharoitida davlat siyosatining ajralmas qismi bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish orqali nafaqat turar joy masalasini hal qilish, balki yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy faollikni oshirish va kambag'allikni qisqartirish kabi vazifalarni ham amalga oshirish mumkin.

Uy-joy qurilishi aholi yashashi uchun mo'ljallangan turar joy binolarini loyihalash, moliyalashtirish, qurish va ekspluatatsiyaga topshirish bilan bog'liq muhandislik, iqtisodiy, me'moriy va ijtimoiy faoliyatlar majmuasidir.


O'z navbatida, ushbu jarayonning har bir elementini alohida ko'rib chiqish lozim. Loyihalash uy-joy yoki boshqa binolar qurilishining dastlabki bosqichi bo'lib, unda binoning arxitektura, konstruktorlik va muhandislik yechimlari ishlab chiqiladi. Loyihalash jarayoni nafaqat binoning tashqi ko'rinishi va funksional jihatlarini belgilaydi, balki uning xavfsizligi, energiya samaradorligi, qulayligi va ekologik tozaligini ham ta'minlaydi.

Loyihalash jarayonida quyidagi asosiy ishlar amalga oshiriladi:

- mijoz va investorlarning talablarini o'rganish;
- binoning joylashuvi va hajmini belgilash;
- arxitektura va konstruktorlik chizmalarini ishlab chiqish;
- qurilish materiallari va texnologiyalarini tanlash;
- qurilish va foydalanish xavfsizligini hisobga olish;
- qurilishning ekologik ta'sirini baholash.



Loyihalashning sifatli va to'g'ri amalga oshirilishi keyingi qurilish bosqichlarining muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydi hamda binoning uzoq muddat xizmat qilishiga zamin yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Uy-joy qurilishi tizimining asosiy elementlari¹

Moliyalashtirish — bu uy-joy qurilishi uchun zarur bo'lgan mablag'larni ta'minlash jarayoni bo'lib, qurilish loyihalarini amalga oshirish uchun katta miqdorda investitsiyalar talab qilinadi. Shu bois moliyalashtirish turli manbalar orqali amalga oshiriladi.

Moliyalashtirishning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat budjeti mablag'lari — davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar bo'lib, ayniqsa ijtimoiy ahamiyatga ega uy-joylarni qurish uchun mo'ljallanadi;
- xususiy investitsiyalar — biznes subyektlari tomonidan kiritiladigan sarmoyalar bo'lib, ko'pincha foyda olish maqsadida amalga oshiriladi;
- bank kreditlari va ipoteka — aholining o'z mablag'lari yoki kredit resurslari yordamida uy-joy sotib olishi yoki qurilishi bilan bog'liq jarayondir;
- xalqaro moliyaviy tashkilotlar kreditlari — yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lardir.

Moliyalashtirish jarayoni samarali boshqarilmasa, loyihalar kechikishi yoki vaqtinchalik to'xtab qolishi mumkin. Shu sababli moliyaviy rejalashtirish, budjetni nazorat qilish va mablag'lardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekspluatatsiyaga topshirish — bu qurilgan uy-joy yoki binoning foydalanishga tayyor ekanligini rasmiy tasdiqlash jarayonidir. Ushbu bosqichda qurilish obyekti tegishli organlar tomonidan tekshiriladi, barcha standart va talablar bajarilgani tasdiqlanadi hamda bino egasiga yoki foydalanuvchisiga rasmiy ravishda topshiriladi.

Ekspluatatsiyaga topshirish jarayoni bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- qurilish sifati va xavfsizligini nazorat qilish;
- binoning texnik hujjatlarini rasmiylashtirish;
- kommunikatsiya tizimlarining ishlashini tekshirish;
- qurilish hujjatlari, sertifikatlar va ruxsatnomalarning mavjudligini ta'minlash;
- binodan foydalanish uchun barcha sharoitlar tayyor ekanligini baholash.

Mazkur bosqich uy-joyning qonuniy ravishda foydalanishga topshirilishiga hamda keyingi texnik xizmat va ta'mirlash ishlarini boshlashga asos bo'ladi.


Nazorat va sertifikatsiyalash — bu qurilish jarayoni davomida va yakunida amalga oshiriladigan sifat, xavfsizlik va muvofiqlikni ta'minlash tizimidir. Mazkur jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- qurilish materiallari va texnologiyalarining standartlarga mosligini tekshirish;
- qurilish ishlarining loyiha va me'yorlarga muvofiqligini nazorat qilish;
- xavfsizlik normalariga rioya qilinishini ta'minlash;
- qurilishdan keyingi test va sinovlarni o'tkazish;
- qurilgan obyektga sifat sertifikatlari va ruxsatnomalarni berish.

Nazorat va sertifikatsiyalash qurilish sifatini oshirish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va qonunchilik talablariga rioya etilishini kafolatlaydi. Ushbu jarayonlar davlat organlari yoki mustaqil sertifikatsiya tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Uy-joy qurilishi O'zbekiston sharoitida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular mamlakatning iqlim sharoiti, yashash sifati va mavjud imkoniyatlari kabi bir qator jihatlarni o'z ichiga oladi (2-rasm).

¹ Muallif tomonidan tuzilgan



2-rasm. O'zbekistonda uy-joy qurilishining o'ziga xos xususiyatlari²

2-rasmda O'zbekiston sharoitida uy-joy qurilishining o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan bo'lib, ularning har biri alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

1. Aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi. O'zbekiston aholisi yildan-yilga barqaror sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Demografik o'sish yuqori bo'lgan sharoitda aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yangidan uylar qurish, mavjud uy-joy fondini rekonstruksiya qilish hamda xususiy uy-joy qurilishini rag'batlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu o'sish nafaqat shaharlarda, balki qishloq joylarda ham uy-joyga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda.

2. Urbanizatsiya va shaharlarning kengayishi. So'nggi yillarda urbanizatsiya jarayonlari O'zbekistonda jadallashdi. Aholining katta qismi ish, ta'lim va xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan yirik shaharlarga ko'chib kelmoqda. Bu esa shaharlar hududining kengayishi, yangi turar joy massivlari va kichik shaharlar atrofida yangi qishloq-shahar tipidagi posyolkalar tashkil etilishini taqozo etmoqda. Mazkur jarayon uy-joy qurilishini nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham zamonaviy talablarga moslashtirishni talab qiladi.

3. Yer resurslarining cheklanganligi. O'zbekistonda qurilish uchun yaroqli yerlar cheklangan hisoblanadi, ayniqsa shaharlar va sanoat markazlari atrofida. Bu holat qurilish narxlariga ta'sir qiladi hamda yerdan samarali va oqilona foydalanishni talab etadi. Shu sababli ko'p qavatli uy-joy qurilishini kengaytirish, yer resurslaridan zich va maqsadli foydalanish, vertikal qurilishni rivojlantirish asosiy yechimlardan biri hisoblanadi.

4. Qishloq joylardagi infratuzilma muammolari. Qishloq hududlarida uy-joy qurilishi ko'p hollarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli murakkab kechmoqda. Yo'l, elektr energiyasi, ichimlik suvi, kanalizatsiya va kommunikatsiya tizimlarining yo'qligi yoki eskirganligi qurilish jarayonini cheklaydi. Bunday sharoitda davlat tomonidan infratuzilmani yaxshilash, uy-joy qurilishiga qulay muhit yaratish uchun maqsadli investitsiyalar va dasturlar amalga oshirilishi lozim.

5. Iqlim sharoitining turlicha bo'lishi. O'zbekiston hududida iqlim sharoiti turlicha bo'lib, mamlakatning shimoliy qismida qish fasli nisbatan sovuq, janubida esa yoz fasli juda issiq bo'ladi, sharqda tog'li va nisbatan nam havo, g'arbiy hududlarda esa qurg'oqchil iqlim kuzatiladi. Bunday iqlimiy xilma-xillik qurilish materiallari tanlovi, loyihalash, izolyatsiya va energiya tejamkorlik kabi jihatlariga jiddiy e'tibor qaratishni talab qiladi. Masalan, qishi sovuq bo'ladigan hududlarda isitish tizimlari va yaxshi izolyatsiyalangan uylar zarur bo'ladi.

O'zbekistonda uy-joy qurilishini rivojlantirishda yuqoridagi omillarni hisobga olmasdan turib barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi. Bu jarayonda davlat siyosati, xususiy sektor ishtiroki, infratuzilmaviy loyihalar va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, miqdoriy emas, balki sifatli uy-joy qurilishiga e'tibor qaratish asosiy vazifalardan biridir.

O'zbekistonda uy-joy qurilishi sohasi so'nggi 30 yil ichida tubdan o'zgardi. Ushbu jarayonda davlat siyosatining bosqichma-bosqich takomillashtirilishi, xususiy sektorning rivojlanishi, ipoteka bozorining kengayishi va infratuzilma islohotlari muhim omillar bo'lib xizmat qildi. Hozirgi bosqichda uy-joy qurilishi nafaqat uylar barpo etish, balki aholi turmush darajasini oshirish va zamonaviy shahar muhitini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar tizimiga aylangan.

Keltirilgan 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondining umumiy maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil aks ettirilgan bo'lib, unda 2015–2024-yillar oraliqidagi ko'rsatkichlar yoritilgan. Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2015–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondining umumiy maydoni 1,47 barobarga oshganligini ko'rish mumkin (1-jadval).

2 Muallif tomonidan tuzilgan



1-jadval. O'zbekiston Respublikasi uy-joy fondining umumiy maydoni to'g'risida ma'lumot [10] (yil oxiriga uy-joylar umumiy maydoni, mln. kv.m.)

Ko'rsatkich	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami	477,1	490,8	507,5	521,2	536,8	549,0	636,4	658,4	692,5	703,8
shu jumladan:										
davlat	3,3	3,4	3,4	3,3	3,5	3,5	3,3	3,4	3,5	3,5
nodavlat	473,8	487,5	504,2	517,9	533,3	545,5	633,1	654,9	689,0	700,3
O'rtacha har bir yashovchiga, kv.m.	15,2	15,4	15,7	15,8	16,0	16,0	18,2	18,5	19,0	18,9
Aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasi to'g'risida ma'lumot (bir nafar aholiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni, kv.m.)	15,2	15,4	15,7	15,8	16,0	16,0	18,2	18,5	19,0	18,9

XULOSA VA TAKLIFLAR

Uy-joy qurilishi — bu oddiy qurilish amaliyoti emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Chunki u:

- bandlikni oshiradi — qurilish sohasida yuz minglab ish o'rinlari yaratiladi;
- ichki bozorni rag'batlantiradi — qurilish materiallari, mebel va texnika bozori rivojlanadi;
- ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi — oilalarning turar joy bilan ta'minlanishi orqali;
- migratsiya jarayonlarini tartibga solishga yordam beradi — aholining istiqomat hududlari rejalashtiriladi;
- infratuzilmalarni rivojlantiradi — yo'llar, suv, elektr, gaz, maktab va boshqa ijtimoiy obyektlar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

Uy-joy qurilishi — bu faqat binolar emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan ko'p qirrali tizimdir. Uning to'g'ri yo'lga qo'yilishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, aholi farovonligi va shaharsozlik madaniyatining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu tizimni har tomonlama chuqur tahlil qilish, demografik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni inobatga olgan holda samarali rejalashtirish zarur.

Shuningdek, uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- zamonaviy va energiya tejamkor qurilish texnologiyalarini keng joriy etish;
- qishloq hududlarida infratuzilmani yaxshilash orqali uy-joy qurilishiga qulay sharoit yaratish;
- ipoteka dasturlarining qamrovini kengaytirish va ularni aholining turli qatlamlari uchun yanada qulay qilish;

- ko'p qavatli va ixcham uy-joy loyihalarini rivojlantirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanish;
- qurilish materiallari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sifatini oshirish;
- uy-joy qurilishi jarayonida ekologik xavfsizlik va barqarorlik tamoyillariga alohida e'tibor qaratish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekistonda uy-joy qurilishi sohasining barqaror rivojlanishiga, aholining turmush darajasi yaxshilanishiga hamda zamonaviy yashash muhitining shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. D. M. Abdrahmet, & A. Yu. Bochkov. "Metody i formy rossiyskoy gosudarstvennoy zhilishchnoy politiki". Ekonomika i predprinimatelstvo, 2023, № 1(150), 183–186-betlar. DOI: 10.34925/EIP.2023.150.1.037.
2. F. Ametefe. "Housing and Construction Finance, Deposit Mobilisation and Bank Performance in Ghana". Journal of Property Research, 2011, № 2, 151–165-betlar. DOI: 10.1080/09599916.2010.538478.
3. M. V. Zaytseva, P. A. Malieva, D. A. Biryukova, & B. Z. Shichiyakh. "Gosudarstvennaya podderzhka kak drayver razvitiya rynka zhiloy nedvizhimosti". Ekonomika i predprinimatelstvo, 2023, № 1(150), 196–202-betlar. DOI: 10.34925/EIP.2023.150.1.040.
4. N. B. Kosareva, T. D. Polidi, & A. S. Puzanov. "Rynok zhilishchnogo stroitelstva v Rossii: sovremennoe sostoyanie i perspektivy razvitiya". Voprosy Ekonomiki, 2013, № 3, 109–125-betlar. DOI: 10.32609/0042-8736-2013-3-109-125.
5. J. Lim Ho, D. Y. Kim, & D. Kim. "Developing a Construction Duration Estimation Model to Ensure the Safety in Apartment Housing Construction Sites". KSCE Journal of Civil Engineering, 2018, № 7, 2195–2205-betlar. DOI: 10.1007/s12205-017-0605-y.



6. N. V. Zvezdina, & A. V. Saraev. "Analiz i modelirovanie vliyaniya makroekonomicheskikh faktorov na vvod v ekspluatatsiyu zhiloy nedvizhimosti v Rossii". Voprosy Statistiki, 2023, № 1, 27–41-betlar. DOI: 10.34023/2313-6383-2023-30-1-27-41.
7. M. V. Zelinskaya, & E. S. Pronin. "Napravleniya povysheniya effektivnosti gosudarstvennogo upravleniya". International Scientific and Practical Conference on актуальные вопросы экономики и гуманитарных наук materiallari, 107–110-betlar.
8. D. D. Levankova, & L. V. Shershova. "Gosudarstvennye funktsii upravleniya v stroitelstve". "Sovremennye perspektivy stroitelstva" ilmiy maqolalar to'plami, Immanuel Kant Baltic Federal University, 2023, 149–163-betlar.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>